


Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Qiziriq tumanida bo'lib, "Yangi turmush" mahallasida yashovchi Normurod Kenjaev tomonidan yo'lga qo'yilgan gul ko'chatlari yetishtirish va gilam to'qish faoliyati bilan tanishdi.



Fuqaro tomonidan yashash xonadonida tashkil etilgan issiqxonada 3 nafar, gilam to'qish sexida kasanachilik asosida 8 nafar "daftarlar"da turgan xotin-qizlar ish bilan ta'minlagan.

Viloyat hokimi oilaviy tadbirkorning gulchilik faoliyatini yuqori baholab, tuman mas'ullariga ushbu tajribani ommalashtirish, mahallada gul ko'chatlari yetishtirish loyihalarini ko'paytirish topshirig'ini berdi. Shuningdek, tadbirkorning kasanachilik faoliyatini kengaytirish uchun joy masalasidagi murojaatiga asosan yangi 60 kishilik joyga ko'chirish bo'yicha tuman hokimiga vazifalar yuklandi.

Hozirda tadbirkor tomonidan issiqxonada 60 ming dona gul ko'chatlari yetishtirilgan va bozorgir to'qima gilamlar ishlab chiqarilmoqda.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)